



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

2022

MAY
№ 40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. Xasanova Mavjuda

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARGA SANOGEN(SOG'LOM) MUSIQIY TARBIYA
BERISH TEKNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH 7

2. Muhammadxo'ja Fazliddinxo'jayev

KONFERANSYE SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING MILLIY ESTRADADAGI
O'RNI 9



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARGA SANOGEN(SOG’LOM) MUSIQIY TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH

Xasanova Mavjud

Fargona viloyati Buvayda tumani
1 umumiy o’rta talim matabining
musiqa fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolda Boshlang’ich sinf musiqa darslarini to’g’ri va izchil yo’lga qo’yish orqali kichik maktab yoshidagi o’uvchilarni tafakkurini oshirish orqali sanogen tarbiyani shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so’zlar: estetik did, B.M.Nemenskiy, T.N.Vasileva, A.B.Rossoxin, Yu.N.Kraynova

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanish yo’lini tanlagan Yangi O’zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan. Bunda o’quvchilarni ayniqsa boshlang’ich sinf o’quvchilarini har jihatdan mukammal, estetik didli qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Bolalarda estetik didni, chuqur fikrlashni shakllantirishda Boshlang’ich sinflarda musiqa madaniyati va musiqa ta’limi asoslari yaratilgan. Boshlang’ich musiqa ta’limi deganda bolalarni musiqa san’atining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, musiqa haqidagi dastlabki bilimlarni egallash jarayoni va natijasi tushuniladi. Boshlang’ich maktabda maktab o’quvchilarining musiqiy madaniyatini ularning ma’naviy madaniyatining bir qismi sifatida shakllantirish maqsadi konkretlashtiriladi. Bu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari :

san’at va hayotga hissiy jihatdan yaxlit munosabat;

musiqa san’atining axloqiy-estetik mohiyatiga adekvat musiqiy idrok;

ijodiy faoliyat tajribasi kompozitor, ijrachi va tinglovchining ma’naviy va ijodiy munosabatlarining namoyon bo’lishi sifatida.

Shu bilan birga, musiqa darsi san’at darsi bo’lgan holda o’ziga xos xususiyatga ega. B.M.Nemenskiy bu borada bilishning ratsional-mantiqiy, ilmiy va emotsiional-obrazli, badiiy ob’yektlari turli xil bilish ob’ektlariga ega ekanligini ta’kidladi. Bir holatda u ob’ektiv voqelik bo’lsa, ikkinchi holatda - unga nisbatan shaxsiy, insoniy munosabat va shunga mos ravishda bilishning turli shakllari, faoliyat shakllari, o’zlashtirish yo’llari, bilish natijalari va rivojlanish natijalari Musiqa va musiqiy tarbiya boshlang’ich sinfda bola tafakkuriga yuksak ta’sir etuvchi omil sanaladi. O’quvchilarda sanogen, musiqiy sanogen tarbiyani shakllantirish boshlang’ich sinf musiqa o’qituvchilari oldida turgan yuksak vazifalardan biriga aylanib ulgurgan, desak, aslo xato bo’lmaydi.

Sanogen (sog’lom) tafakkur inson salomatligini muhofaza qilishning noan’anaviy usullaridan biri bo’lib, yangicha fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydi. Shuningdek, sanogen fikrlash ko’nikmasi fikr yuritishning xilma-xil usullarini o’zlashtirish, unga erkinlik berish, emotsiyalarning keragidan ortiqcha namoyon bo’lishini kamaytirishga imkon beradi. Sanogen fikrlash ko’nikmalarini o’zlashtirish uchun avvalo shaxs o’zida kechadigan aniq hissiy-emotsional holatlar (masalan, nafrat, uyat, muvaffaqiyatsizlik, ishonchsizlik, noadekvat baholash va salbiy fikrlar) haqida yangicha tafakkur yuritishni tarbiyalashi lozim. Ana shunda, inson o’zida mavjud bo’lgan muayyan stereotip fikrlar va xulq-atvor ko’nikmalaridan xalos bo’ladi. Sanogen tarbiya bolalarning tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo’lib, ushbu tushunchaga turli pedagog



olimlar turlicha yondashgan.

T.N.Vasileva o'qituvchining sanogen fikrlashiga bolani sanogen tarbiyalash vositasi sifatida jiddiy e'tibor beradi hamda o'quvchilarda sanogen fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi korrektsion-rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlar to'plamini ishlab chiqadi.

Yu.N.Kraynova emotsiyonal kompetentlik va sanogen refleksiya muammosini tadqiq etar ekan, sanogen refleksiyani sanogen fikr yuritishning muhim tarkibiy komponenti sifatida belgilab, talabalarda emotsiyonal kompetentlikni rivojlantirishning ichki omili sifatida baholash mumkin”, degan xulosaga keladi

Xulosa o'mida aytishimiz mumkinki, sanogen musiqiy tarbiya orqali bolalarning fikrlarini erkin va sog'lom bayon etishda, mustaqil fikrlashda, tafakkur jarayonining ijobiy yo'naltirilishida o'z samarasini ko'rsatadi. Bundan tashaqari, yangicha fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda fikr yuritishning xilma-xil usullarini o'zashtirishda erkinlik berish, bola emotsiyalarining me'yorda namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 у
2. Т.Н. Васильева. Саногенное мышление учащегося, учителя. Калининград : ГИПП «Янтарный сказ», 2000. - 152 с.
3. А.В. Рoccoхин. Личностная саногенная рефлексия в измененных состояниях сознания. Автореф.докт.дисс. М., 2009. – 41 с
4. Ю.Н. Крайнова. Саногенная рефлексия в структуре эмоциональной компетентности будущих педагогов. Автореф. канд. дисс. М., 2010. – 28 с.



KONFERANSYE SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING MILLIY
ESTRADADAGI O'RNI

Muhammadxo'ja Fazliddinxo'jayev

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya. Estrada konsertlarida so'z janrining asosiy bo'g'inlaridan biri bu konferansye hisoblanadi. O'z ildizlarini Yevropa kafe va kabarelardan olgan so'z janriga mansub mazkur san'at turi avvalo sharqiy Yevropa va Rossiya keyinchalik G'arbiy Osijo mintaqasida vujudga kelib, keng quloch yozadi. “Konferansye” fransuz tilidagi “conferer” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “ma'rutzachi” degan ma'noni anglatadi. Konferansye janri estrada janrlari orasida yoshlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Konferansye, estrada, kabare, korfarmon, badihago'ylik, estrada nomeri.

Har qanday konsert, bayram kechalari, shoular va shu singari tadbirlarning konferansyesiz o'tishi bu simfonik orkestrning dirijyorsiz ijrosi demakdir.

Bayram tomoshasi yoki konsertda konferansyening roli muhim ahamiyat kasb etadi. Konferansye tomoshadagi turli xil janrga tegishli nomerlarni bir-biriga bog'lab turuvchi artist bo'lib, yuqori improvizasiya sohibi va bayramning ichki va tashqi dissonansini saqlab turuvchi estrada aktyoridir. U nomerlar o'rtasidagi bo'shlqn to'ldiradi, tomoshabinning va kerak hollarda bayram ishtrokchilarining kayfiyatini oshirishga, ularga zavq ularashishga harakat qiladi. Konferansyening tomoshadagi vazifasi bu bilan cheklanmaydi. U konsert davomida nomerlarning ketma-ketligini aytibgina qolmay, uning tempo-ritmini, xatti-harakat uyg'unligini sezib va saqlab turadi. Konferanslik ijodkordan o'tkir aql egasi, tezkor so'zga chechanlikni va kuchli badihago'ylik iqtidori bo'lishlikni talab etadi. U san'atning barcha turini va yo'nalişlarini o'zida jamlagan artist.

Konferansye o'tkazilayotgan bayram yoki kechaning xo'jayini, egasi, mezboni, bayramga tashrif buyurganlar esa uning mehmonlari. Tomoshabinlar, hattoki bayram ishtirokchilari bo'lmish boshqa artistlar ham uning mehmonlari hisoblanishadi. Demak, konferansye mezbon sifatida ularni ko'taringi ruhda, bag'ri kenglik bilan kutib olishi, ularningko'ngliga kira olishi, ularga shodlik ularashishi zarur. Ular hayotimizda mavjud ijtimoiy kamchiliklarning “tepasidan” turib zavq bilan kula oladilar, nuqsonlarni ilg'ab olib, oshkor qiladilar, kerak joylarda kam gapirib, faqatgina imo-ishoralar va jestlar yordamida tomoshabinga hamma narsani tushuntirib beradilar va uning sevimli aktyoriga aylanib ham qoladilar. Agarda, konsert davomida konferansye biror bir muammo yoki kamchilikni sezib qolsa, bunday hollardan chiqib ketish yo'llarini u juda yaxshi biladi. Ya'ni, muammolarni hech kimning yordamisiz o'zi hal qiladi.

Bayram rejalarini, uning ssenariysini o'zgartira oladi. Tomoshaning zerikarli yoki tomoshabinning ahamiyatsiz bo'la boshlaganini aniqlik bilan sezsa oladi va o'zining hazillari hamda yumori bilan ularning zerikishlariga yo'l qo'ymaydi. Nomerlar orasidagi o'z chiqishlari bilan kelganlarni hayratga soladi, nafaqat tomoshabinni, balki boshqa aktyorlarning ham tomoshaga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Uning ovozi tiniq, jilmaygan yuzidan nur yog'ilib turadi.

Shunday yo'sinda, konsert davomida tomoshabin bilan eng ko'p uchrashadigan, bir qarashda uning ruhiyatini bila oladigan artist konferansye bo'lib qoldi. Chunki vokalist bir-ikki nomerdan keyin boshqasi bilan almashinadi. Konferansye esa nomerlar orasida o'z nomerini ijro qilib ulguradi va konsertni boshqaradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha hislatlar konferansyeda bo'lishi talab etiladi. Konferansye aktyorlik imkoniyatlarining cho'qqisida bo'lishi zarur. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizday uning ijrosini nafaqat tomoshabin balki, boshqa aktyorlar ham kuzatib turishadi. Shuning uchun ham konferanslar tajribali va mahoratlgi aktyorlar orasidan chiqadilar. Yosh estrada aktyori konferans bo'lib yetishishi uchun 10-15 yillik katta tajriba maktabini bosib o'tishiga to'g'ri keladi. Kamdan-kam hollarda o'ta iqtidorli aktyorlargina bo'yo'lni qisqa muddatda o'tishlari mumkin.

Konsertdagagi konferanslik bir kishilik, ya'ni yakka boshqaruvni, yoki ikki kishilik navbatmanavbat boshqaruvni, ba'zan esa ikki kishining bir vaqtqidagiologli boshqaruvini talab qiladi. Bu yo'nalişlarda ham yuqorida sanab o'tilgan uslublardan foydalanish kuzatiladi. Juftliklar – ikki erkak, bir erkak va bir ayol, ikki ayol, ba'zan esa uchlik, to'rtlik va hokazo konsertlarni boshqarish ham kuzatilib turadi. Bunday shakllar konsert yoki tadbirning mavzusi va g'oyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Konferansning asosiy maqsadlaridan yana biri tomoshabin bilan muloqotga kirishish hisoblanadi. Estradada so'z askiya janri ya'ni “podtekst”lar ko'rinishida ijro etilishi mumkin. “Ijodning mazmuni podtekstda”, degan edi K. S. Stanislavskiy. “Usiz so'zning sahnada keragi



yo‘q. Ijod paytida so‘z –adibdan, podtekst artistdan” [4, 48]. Estradada so‘z hatti-harakati shundan iboratki, unda ijrochi sahnada yolg‘iz bo‘lishi mumkin, ana shu yerda tomoshabin aktyorning sherigi sifatida konferansning aniq maqsadi yuzaga keladi va bunday hollarda so‘z hatti-xarakati aynan tomoshabinga qaratilgan bo‘lishi shart. Bu estrada aktyorijrosining hamasosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Estrada spektakllari dramatik spektakllardan farqli o‘laroq faqat sahnada o‘ynalishi shart emas. Parklarda, sirk arenasida, dam olish maydonchalarida hattoki parda yoki kulislarsiz, har qanday dekoratsiyasiz sahnada o‘ynalishi mumkin. Bu farqlarni biz yuqorida ham bildirgan edik. Ammo konferansye san’ati haqida so‘z borganda, ularni yana bir bor eslab o‘tishni lozim topdik. Chunki konferansye san’ati xususiyati haqida gapirganda bu o‘zgarishlarning mazkur janrga bevosita ta’siri mavjudligini ko‘ramiz. Bunda o‘zgarishlarkonferansyening xatti-harakatlariga va ijrosigako‘zda tutilmagan murakkabliklar tug‘dirishi tabiiy.

Misol uchun spektaklning sirk arenasida o‘ynalishini tasavvur qilsangiz, aktyor tomoshabinning barcha tomondan qarab turganligini va ularning har biriga o‘z nomerini qulay ko‘rishlari va eshitishlari uchun imkoniyat yaratishiga to‘g‘ri keladi. Nutqning ravonligi, mimikalarning aniqligi, so‘zning tomoshabinga sof holda yetib borishi, qayerda va qay holatda spektakl o‘ynalayotganligidan qat’iy nazar, tomosha mobaynida bularning barchasi estrada aktyori va xususan konferansdan talab etiladi. Buning uchun estrada aktyori ijroda va iprovizasiyada kuchli mahoratga ega bo‘lishi lozim.

Konferansning bayram davomidagi umumi kompozisiyani saqlab turuvchi shaxs ham ekanini unutmasligimiz zarur bo‘ladi. Dramaturgiya jihatidan asoslangan kosertlar davomida konferansye dramaturgiya qonuniyatlarini saqlab qolishni ham o‘zining vazifalari deb biladi. U konsert davomida dramaturgiya qonuniyatlariga tegishli bo‘lgan qarama-qarshiliklarni o‘zi yaratib, zavyazka(boshlang‘ich hatti-harakat-tugun), kulminasiya(avj nuqtasi) va razvyazka(yechimni) o‘zi belgilab, har xil janrlarga tegishli nomerlardan tashkil topgan tomoshaning tempo-ritmini saqlab turishi zarur bo‘ladi.

Ko‘pchilik konferanslar nomerlarni bir-biriga bog‘lashda quyidagi janrlarga tegishli nomerlardan foydalanadilar: She’r, masal, felyeton, latifa, yumoristik etyud, kichik intermediya, biror-bir asardan monolog, repriza, kuplet, ashula, qo‘shiq, ariya va hokazolar. Albatta, bularni ijro etishdan oldin iloji boricha konsertda o‘zidan oldingi va keyingi nomerlarning janriga o‘xshash bo‘laman janr tanlanadi. Konferansyening nomeri qisqa va lo‘nda bo‘lishi, zerikarli bo‘lmasligi bilan birga o‘zidan oldigi va keyingi artistga izoh berishi, uni tanishtirishi ham kerak bo‘ladi.

Tomoshabin keyingi artistni tanishtirayotgan konferansyeni diqqat bilan tinglashi uchun u bor mahoratini ishga soladi, sabr-toqat bilan har bir artistni sahnaga taklif qiladi va kuzatadi. U har qanday vaziyatda mehmondo‘stligini, tomoshabinga va boshqa aktyorlarga nisbatan izzatli bo‘lishni, hurmat va ehtiromni unutmaydi. Demak, konferansye konsert davomida, har doim barchaning diqqat markazida ekanligini yodidan chiqarmasligi zarur. Kiyinishda, o‘zini tutishda, muomalada, hatti-xarakatda, qisqasi madaniyatning barcha ko‘rinishida hammaga o‘rnak bo‘lishi va bunga doimiy e’tibor qilishi lozim.

Barcha aktyorlarning nomerlari singari konferansning nomerida ham qandaydir bugungi kun muammosining ko‘tarilishi, uning avj nuqtasi va so‘ngida ana o‘sha muammoning yechimi zarur bo‘ladi. XX asrning 20-yillarida Rossiyada estrada aktyori va konferanslik sohasida ijod qilgan, hamda ushbu janrning o‘ziga xos qirralarini tadqiq etgan Donat Mechik bu haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: Konsert davomida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan barcha nomerlar umumi kombinasiyaga ega bo‘lishi bilan birga, badiiy- g‘oyaviy tuzilishi jihatidan bir maqsadga qaratilganligi estrada tomoshalari, revyu, myuzik-xoll, hattoki estrada janri asosidagi spektakllarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi [2, 34]. Konsertlarning ana shunday rivojlanish yo‘li estrada san’atining va alohida estrada teatrining dunyoga kelishiga olib keldi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
2. Мечик Д. Искусство актёра на эстраде. – Л.: Искусство, 1972.
3. Rahmonov M., Muxtarov E., To‘laxo‘jayeva M. O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent: 2003.
4. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Toshkent: “Badiiy adabiyot” nashriyoti, 1965.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000